


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 7 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 7 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 7

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 7



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№7 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-7>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

TARIX

- 1. Mo‘minjon Salayev Atabayevich**
BAQTRIYA HUJJATLARIDAGI TURKIY ISMLAR VA ULARNING TARIXIY TALQINI.....7
- 2. Tilovboyeva Mardona Aybekovna**
O‘RTA OSIYODA TOSH DAVRINING ILK BOSQICHI XUSUSIYATLARI.....19
- 3. Акрамова Ф.А.**
СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН-РАБОТНИЦ ЛЁГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (1946-1960 ГГ.).....22
- 4. Файзуллаев Мансур Хайруллаевич**
СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ КАРАКУЛЕВОДСТВА В ЖИВОТНОВОДЧЕСКИХ КОМПЛЕКСАХ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА И ЕЁ СИСТЕМНЫЕ ПРОБЛЕМЫ (1960-1980 ГГ.).....30
- 5. Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
QO‘NG‘IOTLAR SULOLASI DAVRIDA XIVA XONLIGINING TASHQI SIYOSIY ALOQALARI: SHAKLLANISHI, YO‘NALISHLARI VA TARIXIY AHAMIYATI.....37
- 6. Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN DIPLOMATIK VA IJTIMOY-SIYOSIY MUNOSABATLARI.....47
- 7. Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o‘g‘li**
“XORAZM OKRUGIDA YIRIK MEHNATSIZ XO‘JALIKLARNI TUGATISH TO‘G‘RISIDA”GI DEKRETNING TAHLILI.....56
- 8. Kenjayev Hasan Atanazarovich**
XV-XVI ASRLARDA SAROY KUTUBXONASINI BOSHQARISH AMALIYOTI: “BADOYE’ UL-VAQOE” ASARIDAGI MANSHUR MISOLIDA.....64
- 9. Қадамбаев III.**
ЎРТА ЗАРАФШОНДА ТОШ ДАВРИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИНИ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ.....70
- 10. Matkarimova Nazokat Maksudovna, Matnazarova Dilorom Radjabbaevna**
XORAZMLIKLARNING AN‘ANAVIY MADANIYATIDA OILA VA OILAVIY ETIKET.....73

IQTISOD

- 1. Radjabova Mavluda Ergash Qizi**
MINTAQADA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI.....77
- 2. Хусаинов Джахонгир Баходирович, Мухаммадсолиев Миродилжон Мирзохид угли**
КАСКАДНО-ЦИКЛИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ЦЕНООБРАЗОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМ РИСКОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ.....84

3. Matyakubov Umidjon Raximovich, Qodirova Dilfuza Sodiqjon qizi, Kodirova Feruza Sodiqjonovna	
TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI VA AHAMIYATI: STATISTIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL ASOSIDA.....	89

FILOLOGIYA

1. Adizova Surayyo Abduxoligovna	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOGNITIV TERMINOLOGIYANING SHAKLLANISH TAMOIYILLARI (TIBBIY TERMINLAR MISOLIDA).....	97
2. Shoymardanova Dilfuza Baxtiyorovna	
ERKIN VOHIDOV ASARLARIDA SINTAKTIK PARALLELIZM VA POETIK INDIVIDUALLIK.....	103
3. Khudoyshekur Makhmudov	
TOURISM DISCOURSE AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH: A COMPARATIVE LINGUISTICS PERSPECTIVE.....	107

PEDAGOGIKA

1. Sh.E.Yakubova	
“OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI KOMPETENTLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI”..	112
2. Kalandarova Madina Baxadirovna	
IJTIMOIIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDAGI AYOLLAR HAYOT SIFATI BILAN BOG'LIQLIGI.....	116
3. Kasimova Xulkar Atabayevna	
NOGIRON FARZANDLI TURLI YOSHDAGI ONALARNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI VA EMOTSIONAL O'ZINI-O'ZI NAZORAT QILISH O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LANISHLAR.....	120
4. Абибуллаев Арсен Редванович	
ОСОБЕННОСТИ ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕДУР СЕМИБОРОК В СТРУКТУРЕ ТРЕНИРОВОЧНОГО И СОРЕВНОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА.....	124
5. Шарипова Мадина	
ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ АДАПТАЦИИ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	129
6. Pulatova Zulfiya Abduazizovna	
OLIIY HARBIY TA'LIM DA KURSANTLARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI BAHOLASH METODIKASINI HKT-INDEKSI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	136
7. Xasanboyev Javohir	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA JADID PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	145

Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası dotsenti

e-mail: abduvali4111104@gmail.com

https://orcid.org/0009-0003-6958-0605

**QO'NG'IROTLAR SULOLASI DAVRIDA XIVA XONLIGINING TASHQI SIYOSIY
ALOQALARI: SHAKLLANISHI, YO'NALISHLARI VA TARIXIY AHAMIYATI**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21979975>**Anotatsiya**

Mazkur maqolada XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrda Xiva xonligining tashqi diplomatik hamda savdo-iqtisodiy aloqalari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda xonlikning Buxoro va Qo'qon xonliklari, shuningdek Eron, Hindiston, Afg'oniston va Rossiya bilan olib borgan elchilik munosabatlari, savdo-sotiq aloqalari hamda o'zaro bordi-keldi jarayonlarining asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

Maqolada Xiva xonligining mintaqaviy va xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni, tashqi savdo yo'llarining ahamiyati, diplomatik aloqalarning siyosiy va iqtisodiy mazmuni ilmiy jihatdan ochib berilgan. Shu bilan birga, mavzuga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, tarixiy tadqiqotlar hamda tadqiqotchi olimlarning qarashlari qiyosiy asosda ko'rib chiqilib, masalaning tarixshunoslikdagi yoritilish darajasi baholangan. Tadqiqot natijasida Xiva xonligining qo'shni va uzoq davlatlar bilan olib borgan aloqalari uning tashqi siyosati, iqtisodiy hayoti va mintaqadagi siyosiy mavqeini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, tashqi siyosat, diplomatik aloqalar, elchilik missiyalari, karvon savdosi, xalqaro savdo yo'llari, Rossiya imperiyasi, Markaziy Osiyo diplomatiyasi.

**ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИЕ СВЯЗИ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА В ПЕРИОД
ДИНАСТИИ КУНГРАТОВ: ФОРМИРОВАНИЕ, ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И
ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ**

Доцент кафедры истории Шахрисабзского
государственного педагогического института

Бердиев Абдували Абдуганиевич

e-mail: abduvali4111104@gmail.com

https://orcid.org/0009-0003-6958-0605

Анотация

В данной статье на основе исторических источников анализируются внешнеполитические и торгово-экономические связи Хивинского ханства во второй половине XVIII – XIX вв. В исследовании рассматриваются дипломатические контакты и торговые отношения ханства с Бухарским и Кокандским ханствами, а также с Ираном, Индией, Афганистаном и Россией. Особое внимание уделяется вопросам посольских миссий, торгово-караванных связей и взаимных контактов между государствами.

В статье раскрывается роль Хивинского ханства в системе региональных и международных отношений, а также значение внешней торговли и дипломатических связей в социально-экономическом развитии государства. Наряду с этим проведён анализ существующих научных исследований и взглядов учёных по данной теме, что позволило определить степень её изученности в историографии. В результате исследования обосновано, что внешние связи Хивинского ханства с соседними и дальними государствами являлись одним из важных факторов, определявших его политическое положение и экономическое развитие в регионе.

Ключевые слова: Хивинское ханство, внешняя политика, дипломатические отношения, посольские миссии, караванная торговля, международные торговые пути, Российская империя, дипломатия Центральной Азии.

FOREIGN POLITICAL RELATIONS OF THE KHIVA KHANATE DURING THE QONGRAT DYNASTY: FORMATION, MAIN DIRECTIONS, AND HISTORICAL SIGNIFICANCE

Associate Professor of the History
Department, Shahrisabz State Pedagogical
Institute,
Abduvali Abdugʻaniyevich Berdiyev
e-mail: abduvali4111104@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0003-6958-0605>

Annotation

This article analyzes the external diplomatic and trade relations of the Khiva Khanate during the second half of the eighteenth and the nineteenth centuries on the basis of historical sources. The study examines the diplomatic contacts and trade relations of the khanate with the Bukhara and Kokand Khanates, as well as with Iran, India, Afghanistan, and Russia. Particular attention is given to embassy missions, caravan trade connections, and various forms of interstate interactions.

The article also highlights the role of the Khiva Khanate within the system of regional and international relations, emphasizing the importance of diplomatic and trade ties in the socio-economic development of the state. In addition, the study reviews the existing historiography and the scholarly interpretations related to the topic, allowing an assessment of the current level of research. The findings demonstrate that the external relations of the Khiva Khanate with neighboring and distant states constituted a significant factor in shaping its political position and economic activity within Central Asia.

Keywords: Khiva Khanate, foreign policy, diplomatic relations, diplomatic missions, caravan trade, international trade routes, Russian Empire, Central Asian diplomacy.

Kirish.

Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishishi milliy tarixni xolis va ilmiy asosda oʻrganish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Mustaqillik yillarida ilgari mafkuraviy yondashuvlar taʼsirida biryozlama talqin qilingan tarixiy jarayonlarni qayta koʻrib chiqish, ayniqsa oʻzbek davlatchiligi va diplomatiya tarixini zamonaviy metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etish tarixshunoslikning muhim yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda Oʻzbekistonning xalqaro maydonda faol siyosiy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirayotgani milliy diplomatiya tarixining tarixiy ildizlarini chuqur oʻrganish zaruratini yanada oshirmoqda.

Tarixiy manbalar oʻzbek davlatchiligi turli davrlarda qoʻshni davlatlar bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy va diplomatik aloqalarni yoʻlga qoʻygani koʻrsatadi. Xonliklar davrida shakllangan elchilik amaliyoti, savdo munosabatlari va davlatlararo muloqot anʼanalari mintaqa tarixiy taraqqiyotida muhim oʻrin tutgan. Shu nuqtai nazardan, XVIII–XIX asrlarda Xiva xonligining

qo'shni davlatlar bilan olib borgan tashqi aloqalari masalasi tarixiy manbalar asosida chuqur o'rganishni talab qiladi. Mazkur tadqiqot Xiva xonligining diplomatik va savdo munosabatlarining shakllanishi hamda rivojlanish jarayonlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning tadqiq qilinganlik darajasi. Zamonaviy tarixshunoslikda o'zbek davlatchiligi tarixining turli davrlarida shakllangan tashqi siyosiy aloqalar va diplomatik munosabatlarni o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Mazkur yo'nalishdagi monografiyalar, ilmiy maqolalar va umumlashtiruvchi asarlarda Markaziy Osiyo davlatlarining qo'shni mamlakatlar bilan olib borgan siyosiy, savdo-iqtisodiy va diplomatik aloqalari ma'lum darajada yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar o'zbek davlatchiligi tarixida diplomatik munosabatlarning shakllanishi, elchilik amaliyoti hamda davlatlararo aloqalarning rivojlanish jarayonlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

O'zbek diplomatiyasi tarixining tarixiy asoslarini o'rganishda ayrim tadqiqotchilarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Jumladan, B. Mannopovning ilmiy ishlarida diplomatik aloqalarning tarixiy ildizlari va ularning davlatchilik taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, xonliklar davrida va Chor Rossiyasi istilosidan keyingi davrda yuzaga kelgan siyosiy va savdo munosabatlari "O'zbekistonning yangi tarixi" nomli fundamental asarning birinchi jildida keng yoritilgan. Mazkur asarda Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi aloqalari, diplomatik missiyalar hamda savdo aloqalariga oid muhim tarixiy ma'lumotlar keltirilgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xiva xonligining qo'shni davlatlar, ayniqsa Rossiya davlati bilan olib borgan diplomatik va savdo aloqalarini kompleks tarzda o'rganish hali ham dolzarb ilmiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Mavjud tadqiqotlarda ushbu aloqalar umumiy tarixiy jarayonlar doirasida yoritilgan bo'lib, Xiva xonligining tashqi siyosiy faoliyati va davlatlararo munosabatlar tizimidagi o'rni maxsus tadqiqot sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Shu bois mazkur masalani tarixiy manbalar va zamonaviy tarixshunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ko'rilayotgan davrda Xiva xonligining boshqa qo'shni davlatlar Buxoro, Qo'qon xonliklari, Eron, Hindiston va Afg'onistondagi mavjud davlatlar bilan olib borgan o'zaro aloqalarining ayrim tamonlariga doir bir qator ilmiy ishlar e'lon qilingan.[3] Ushbu asarlarda o'zaro aloqalarning ayrim jihatlari ochib berilgan. Tadqiqotlarning taxmin va tavsifi shundan guvohlik beradiki, Vatanimiz tarixshunosligida Xiva xonligining qo'shni davlat Buxoro, Qo'qon xonliklari, Eron, Hindiston, Afg'oniston va Rossiya davlati bilan olib borgan o'zaro elchilik, savdo-sotiq, madaniy sohalaridagi hamkorliklariga doir yaratilgan asarlar, maqolalar va arxiv xujjatlarini jamlagan holdagi yagona tadqiqot xozircha yo'q.

Mavzuning ilmiy yangiligi shundan iboratki, Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Xiva xonligining qo'shni davlatlar bilan olib borgan tashqi siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalari tarixiy manbalar asosida tizimli hamda kompleks tarzda tahlil qilinadi. Avvalgi tadqiqotlarda mazkur masalaning ayrim jihatlari qisman yoritilgan bo'lsa-da, Xiva xonligining diplomatik aloqalari va savdo munosabatlarini yaxlit holda o'rganishga yetarli e'tibor qaratilmagan. Shu bois tadqiqotda mavjud ilmiy adabiyotlar, tarixiy manbalar va sayyohlar hamda elchilar qoldirgan ma'lumotlar asosida xonlikning tashqi aloqalariga doir ma'lumotlar umumlashtirilib tahlil qilinadi.

Tadqiqot davomida Xiva xonligining Buxoro va Qo'qon xonliklari, shuningdek Eron, Hindiston, Afg'oniston hamda Rossiya bilan olib borgan diplomatik va savdo aloqalari, elchilik missiyalari va iqtisodiy munosabatlari qiyosiy tahlil asosida o'rganiladi. Turli manbalardagi ma'lumotlarni tizimlashtirish orqali Xiva xonligining mintaqaviy siyosiy va iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni aniqlashtiriladi. Shu jihatdan tadqiqot Xiva xonligining tashqi aloqalarini ilmiy jihatdan umumlashtirib, ularning tarixiy rivojlanish xususiyatlarini yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqotda XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrda Xiva xonligining qo'shni davlatlar bilan olib borgan siyosiy, diplomatik hamda savdo-iqtisodiy aloqalari zamonaviy tarixshunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot

natijalari xonliklar davri tashqi siyosiy aloqalarining o'ziga xos jihatlarini aniqlash hamda O'zbekiston davlatchiligi tarixining muhim masalalarini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqotda keltirilgan ilmiy xulosalar va tarixiy ma'lumotlardan O'zbekiston tarixi, Markaziy Osiyo diplomatiyasi hamda xalqaro munosabatlar tarixini o'rganishda foydalanish mumkin. Mazkur materiallar oliy ta'lim muassasalarida tegishli fanlarni o'qitishda qo'shimcha ilmiy manba sifatida ham ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Xiva xonligining tarixiy diplomatik tajribasini o'rganish milliy diplomatiya an'analari shakllanish jarayonini anglash hamda tarixiy merosni keng jamoatchilikka yetkazishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qisim

So'nggi yillarda O'zbekiston tarixining muhim va dolzarb masalalarini tadqiq etishda tarixiy jarayonlarga xolis, manbaviy asoslangan yondashuvni qo'llash zarurati yanada ortib bormoqda. Ayniqsa, o'zbek davlatchiligi tarixini, uning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini chuqur o'rganish, tarixiy manbalarda mavjud ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish hamda ularni tahlil qilish zamonaviy tarixshunoslikning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan Xiva xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini, shuningdek, uning qo'shni davlatlar bilan olib borgan tashqi aloqalarini o'rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, xonlik hukmdorlarining ichki va tashqi siyosati, ularning mintaqaviy siyosiy jarayonlarga ta'siri hamda bu siyosatning natijalari tarixiy manbalar asosida tahlil etilishi zarur.

XVIII-XIX asrlarda Xiva xonligi o'z tarixida muayyan taraqqiyot bosqichini boshdan kechirdi. Buxoro amirligi, qozoq juzlari hamda turkman qabilalari bilan murakkab siyosiy munosabatlar mavjud bo'lishiga qaramay, xonlikda ma'lum darajada siyosiy barqarorlik va iqtisodiy faollik kuzatilgan. Ayniqsa, ushbu davrda tashqi savdo aloqalarini kengaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, xonlikning tashqi iqtisodiy aloqalari asosan Rossiya orqali G'arb mamlakatlari bilan bog'langan bo'lib, bu holat mintaqaviy savdo yo'nalishlarining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Shu bilan birga, G'arb davlatlarining, ayniqsa Angliyaning, Markaziy Osiyoga bo'lgan qiziqishi ham tobora kuchayib bordi. Angliya savdo manfaatlarini kengaytirish maqsadida Xiva xonligi orqali Eron va boshqa Sharq hududlariga chiqish imkoniyatlarini izlagan. Bu jarayonning ildizlari XVI asrga borib taqaladi. Masalan, Moskva orqali Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yish maqsadida ingliz savdo kompaniyasi tomonidan Ivan Grozniy ruxsati bilan A. Jenkinson boshchiligidagi savdo ekspeditsiyasi tashkil etilgan.

Rossiya davlati ham o'z navbatida Markaziy Osiyo bilan aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. Xususan, Pyotr I davrida O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo va diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'yish, shu orqali Eron hamda Shimoliy Hindiston bilan aloqalarni kengaytirish rejalashtirilgan. Biroq o'sha davrdagi siyosiy vaziyat, mintaqadagi murakkab sharoit va o'zaro ishonchsizlik sababli Rossiya tomonidan yuborilgan ayrim diplomatik missiyalar muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Shunga qaramay, ushbu jarayonlar Markaziy Osiyo, jumladan Xiva xonligining xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirgan.

Rus amaldorlarining O'rta Osiyo xonliklariga yuborgan elchi va savdogarlari tomonidan to'plangan ma'lumotlari o'z davrida Buxoro va Xiva xonliklarining tabiiy va boshqa boyliklari Rossiyaning qiziqishiga sababchi bo'lgan edi. Shunday moyillik xonliklar tomonidan yuborilgan elchilik aloqalarida ham kuzatiladi. Xususan, 1726-yilda Peterburgga xivalik elchi Subhonqulibek kelgan. U rus hukumati oldiga Rossiya bilan Xiva o'rtasida savdo munosabatlarini qaytadan yurgizish masalasini qo'yadi. 1726-yil 17-sentabrda Oliy maxfiy kengash Rossiyadan Xivaga savdogarlarni jo'natish xivaliklar uchun ham, Xivadagi rossiyaliklar uchun ham foyda keltiradi, axir savdoning taqiqlanishidan ham xazina, ham savdogarlar zarar ko'rmoqda, degan xulosaga kelgan edi.

Subhonqulibek elchilik missiyasiga javoban, Rossiya Oliy maxfiy kengashi Xiva bilan savdo munosabatlari o'rnatish to'g'risida maxsus qaror chiqargan va Astraxandagi tayanch punktidan foydalanib, o'sha paytlarda Rossiya bilan savdo aloqalarida mashhur bo'lgan samarqandlik Yodgor Alimov rahbarligida Xivaga rus savdo karvonini jo'natadi.

1728-yilda Xivaga jo'natilgan ushbu karvon boshlig'i Yodgor Alimovga Rossiya savdo aloqalari uchun nafaqat Xiva haqida, balki Buxoro, Samarqand, Balx, Koshg'ar, Toshkent, hatto Boburiylar Hindistonining Kobul va Lahor shaharlarigacha qanday imkoniyatlar borligini o'rganish vazifasi topshiriladi. Ushbu savdo karvonini himoya qilish uchun Yoyiq kazaklaridan tuzilgan otliq askarlar ajratilgan. Yuqoridagi Oliy maxfiy kengash qarorida Astraxanda va Rossiyaning boshqa shaharlarida Xiva va Buxorodan keltirilgan mollar bilan savdo qilishga ruxsat berilgan edi.

Tadqiqotchilardan O'rta Osiyodagi agrar masalalar bilan shug'ullangan E. Zelkina o'rta asrlar boshlarida Yevropa bilan Hindiston o'rtasidagi savdo aloqalarda O'rta Osiyo xalqlarini, jumladan Xiva xonligining ishtirokiga alohida urg'u berib o'tadi. Bu davrda savdo-sotiq juda ham gullab yashnaganligi, ammo, XVI-XVII asrlarda bu savdo bir oz sekinlashgan bo'lsa, XVIII asrda yana jonlanish sezilganligini ta'kidlaydi. Muallif o'rta asr bozorlaridagi qul savdosiga ham e'tiborini qaratgan. Qulchilik bozori ko'proq Xivada bo'lganligi extimol. Unga ko'ra, Xivaning katta bozorlarida 200 tagacha qullar bo'lgan, O'rta Osiyoda qullar mehnati samarasiz bo'lib, ular asosan uy ishlarida va dalalarda ishlatilgan. Shuningdek, Xiva va Buxoroning Eron bilan chit, movut va qullar orqali qizg'in savdo qilganligini ham ta'kidlab o'tadi.[4-20- bet].

Ma'lumki XVIII asrning 40-yillari oxirlaridan Erondagi ichki vaziyatning og'irligi va g'alayonlar hind savdosiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatgan. Eronda xonavayron bo'lgan hind savdogarlari endilikda e'tiborlarini O'rta Osiyo savdosiga qaratishga majbur bo'lgan. Avvallari unchalik rivojlanmagan hind savdosi, XVIII asrning ikkinchi yarimida muntazam davom etadigan va keng miqyosda olib boriladigan bo'ldi.

Shu o'rinda xulosa chiqarish mumkinki, birinchidan, Xiva xonligi Eron bilan savdo aloqalari o'rnatgan bo'lgan, ikkinchidan xiva tovarlari hind savdogarlari qo'li bilan Rossiyaga olib borilgan, uchinchidan hindlar eron orqali Xiva-Rossiya savdosida vositachi rolini bajargan.

XVIII-XIX asrlarda Xiva xonligi muayyan dinamik taraqqiyot bosqichiga erishgan edi. Qo'shni Buxoro amirligi, Qozoq juzlari va bebosh turkman urug'larining murakkab o'rovi sharoitida bo'lishiga qaramay, xonlikda ba'zi ravon holatlar kuzatiladi. Shu davrda Xiva o'zining tashqi savdo munosabatlariga ham katta ahamiyat bergan. Lekin ayrim ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Xivaning tashqi iqtisodiy munosabatlari ko'proq Rossiya va u orqali g'arb mamlakatlari tomon intilgan. Xuddi shuningdek, G'arb mamlakatlarining, xususan, Angliyaning Xivaga qiziqishi va u orqali Eronga chiqish istagi paydo bo'lgan. Aslida esa bu intilish XVI asrdan boshlab kuzatiladi. Masalan, Angliyaning Moskvada tashkil etilgan savdo kompaniyasi Ivan Grozniy yorlig'i bilan A.Jenkinson rahbarligidagi savdo ekspeditsiyasiga sabab bo'lgan.

Bu o'rinda Xivaning sharq mamlakatlari bilan savdo munosabatlari qanday kechgani masalasi yetarli darajada ma'lumotlar bilan ta'minlangan emas. Bu haqda XVI-XIX asrlar orasida Xivaga kelgan ko'plab savdo karvon ekspeditsiyalari tomonidan berilgan hisobotlardagi ma'lumotlargagina tayanilishi mumkin. Shu bilan birga Xivaga jo'natilgan G'arb mamlakatlarining, xususan, Rossiya va Angliyaning XVIII-XIX asrlar davomidagi savdo ekspeditsiyalari ma'lumotlariga ham alohida to'xtalish mumkin. Jumladan, 1726-yilda Xivadan Subxonqulixon boshliq elchilik missiyasi Peterburgga kelib Yekaterina saroyida qabul qilingan. Elchilikning maqsadi Petr I davrida Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining halokati tufayli uzilib qolgan savdo-iqtisodiy munosabatlarni tiklash edi. Holbuki, Xiva tomonidan Petr I ga qadar Rossiya bilan aloqalar o'rnatish maqsadida 1585-yilda Xo'ja Muhammad boshchiligidagi, 1641-yilda Muhammad Amin Bahodir, 1646-yilda Nazar Nodirqulov, shu yilning o'zida Shohbobo rahbarligidagi bir qancha elchilik missiyalari va nihoyat Petr I ning o'zi davrida Shoxniyozxon elchiligi amalga oshirilganligi yuqorida ta'kidlab o'tildi. XVIII asrning 20 - 40 yillari Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklari bilan aloqalarida biroz sustkashlik seziladi. Bu holat Bekovich – Cherkasskiy ekspeditsiyasining halokati tufayli 1716-yildagi Rossiya bilan Xiva o'rtasidagi savdo iqtisodiy aloqalarining to'xtatilishi bilan bog'liq edi.

Bu davrda Rossiyadan O'rta Osiyo xonliklariga, Xivaga keltirilayotgan mahsulotlar orasida mis, temir, po'lat, alyuminiy va boshqa turli metallar, metaldan yasalgan turli uskunalar asosiy o'rin egallagan. O'rta Osiyodan paxta, jun, quritilgan meva, gilam va boshqa mahsulotlar Rossiyaga jo'natilgan.

XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyodan Rossiya bozorlariga har yili 4 mln. so'mlik mahsulotlar chiqarilgan. Rossiyadan esa 3 mln. so'mlik mahsulotlar keltirilgan. Nijniy Novgorod, Qozon, Astraxan va Orenburg sharhlari Xiva va O'rta Osiyo savdogarlarining juda serqatnov shaharlari bo'lib qoldi. XVIII asr o'rtalarida va XIX asr boshlariga kelib, O'rta Osiyo masalasida Rossiya va Angliya munosabatlari ancha keskinlashib qoldi. Angliya hukumati o'zining Hindistondagi hukmronligini mustahkamlab olgach, O'rta Osiyo xonliklarini ham o'z ta'sir doirasiga olish niyatida edi. Rossiya ham huddi shunday niyatni ko'zlayotgan edi. Natijada O'rta Osiyo masalasida Angliya bilan Rossiya manfaatlari to'qnashib qoldi. O'rta Osiyo Rossiyaga xom ashyo manbai sifatida judayam zarur edi. Ammo uni qurol kuchi ishlatib darhol bosib olish uchun hali Rossiya tayyor emas edi. Shuning uchun Rossiya O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo-sotiqni yanada kengaytirish, o'zaro munosabatlarni yaxshilash, Xiva va Buxoro xonliklari haqida yanada ko'proq ma'lumotlar to'plash yo'lini tutdi. Shu maqsadda Xivaga 1740-1741-yillarda Dmitriy Gladishev va Ivan Muravin boshchiligida ekspeditsiyalar uyushtirildi. Ular Orol dengizining chap tomonida geografik va harbiy topografik tekshirish ishlari olib bordilar. D.Gladishev va N.Muravyov ekspeditsiyasi Sirdaryo havzasida ham tekshirishlar o'tkazib, bu yerda harbiy iste'hmom qurish joyini aniqladi. Xuddi o'sha vaqtda, tijorat bahonasi bilan, Xivada sayohat qilgan Gokk va Tomson boshchiligidagi ingliz razvetkasi ham Orolning G'arbiy tomonida qidiruv ishlari bilan shug'ullanar edi.

O'rta Osiyo uchun Angliya va Rossiya o'rtasidagi raqobat XIX asrning 70-yillarigacha davom etdi. 1819-yilda Xivaga elchi sifitida N.Muravyov keldi. U Xiva xoni bilan muzokoralar olib bordi. Bu muzokoralar, asosan, ikkala mamlakat o'rtasidagi savdo karvonlari xavfsizligini ta'minlash, bir-birlarining chegaralariga xavf tug'dirmaslik haqida kelishib olishga bag'ishlangan edi. N.Muravyov o'zining Xiva safari haqida yozib qoldirgan hisobotida Xiva Rossiya munosabatlari hamisha ham bir tekis bo'lmagan. Ular o'rtasida kelishmovchiliklar, xatto to'qnashuvlar ham bo'lib turgan. Ma'lumki, Rossiya XIX asrning 30-yillariga kelib, qozoq dashtlarini shimoliy qismini o'z tasarrufiga o'tkazishni nihoyasiga yetkazgan edi. Biroq Sirdaryoning quyi oqimi bilan Orenburgning shimoliy qismidagi maydonlar hamda Urol daryosi bilan Kaspiyning shimoliy-sharqiy sohillari oralig'idagi keng hududlar hali na Xiva xonligi, na Rossiyaga qarashli edi. Ana shu maydonlarda Rossiya va Xiva ta'siridagi qozoqlar ko'chib yurar va chorvasini boqardi. Ikkala tomon ham ana shu hududlarni o'z tasarrufiga olish niyatida edi. 1834-yilda Rossiya hukumati topshirig'i bilan Mang'ishloqda Novoaleksandrovsk harbiy istehkomi qurildi. Bu qo'rg'on rus qo'shinlarining O'rta Osiyoga keyingi yurishlarida tayanch vazifasini bajaradi. Novoaleksandrovsk qal'asining qurilishi Xiva xonligining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Shundan keyin Xiva-Rossiya munosabatlari keskin tus oldi. Rossiya hukumati Xiva xonligini qurol kuchi bilan o'z talablariga bo'ysundirish maqsadida, 1739-1740-yillar oralig'ida Orenburg gubernatori general V.A.Perovskiy boshchiligida Xivaga yurish boshladi. Bu yurish ham tabiiy ofatlarga duch kelib, muvaffaqiyatsiz tugadi.

Xiva xoni Olloqulixon Rossiya bilan munosabatlarini yumshatmasa, ahvol urushga olib kelishini payqab, 1840-yilda Peterburgga maxsus elchilar yuboradi. 1741-yilda esa Rossiya hukumati tinchlik muzokoralarini davom qildirish uchun Xivaga kapitan G.I.Danilevskiy boshchiligida o'z vakillarini jo'natdi. Rossiya bilan Xiva xonligi o'rtasidagi avvalgi savdo sotiqlik, diplomatik munosabatlar yana qayta tiklandi. Lekin Rossiya hukumati o'zining qora niyatlaridan qaytmadi. U Xiva xonligining ichki ishlariga aralashish, xonlik haqida harbiy strategik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar to'plash ishini to'xtatmadi. 1846-yilda Xiva xonligi hududida, Mang'ishloqda Orol dengizi va Sirdaryo atroflarida M.Ivanin boshchiligida bir guruh harbiy mutaxassislar ish olib bordi. Ular Xorazm vohasi va Orolbo'yining harbiy topografik xaritasini tayyorladilar. Bu ishni 1848-yilda kelgan kapitan A.Butakov davom ettirib, u ham Xorazm vohasining ancha mukammal harbiy topografik xaritasini yaratdi.

A.Butakov ekspeditsiyasi 1853-yilda ham Xorazm vohasida ish olib bordi. Uning ekspeditsiyasi Amu va Sirdaryoda rus kemasozligining yo'lga qo'yish imkoniyatlarini har taraflama asoslab berdi. 1858-yilda Xivaga yuborilgan polkovnik Ignatev boshchiligidagi maxsus komissiya Xiva va Buxora xonlarini Amudaryoda rus kemalarining erkin suzishiga ko'ndirdi. Shunday qilib,

Rossiya hukumati XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmi davomida O'rta Osiyo, jumladan, Xiva xonliklari bilan savdo-sotiq, diplomatik aloqalarni rivojlantirib, elchilar hamda turli ekspeditsiyalar yordamida bu xonliklarni kelgusida bosib olish uchun barcha zarur ma'lumotlarni to'plab olishga muvaffaq bo'ldi.

XIX asrning 30-40-yillarida Xiva xonligida hunarmandchilik sohasidagi ahvoli yoki uning imkoniyatlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud edi. Jumladan: Xiva, Hazorasp, Xonqa, Yangi Urganch, Karmana, Qo'shko'pir, G'azovot, Shavot, Chig'atoy, Ambar, Kat, Toshovuz, Gurlan, Xitoy, Manng'it, Xo'jayli, Qo'ng'iro't, Bag'dod, Bo'ldimsoy, Ilyali, Eshonqipchoq, Qilich Niyozboy, Qo'xna Urganch, Pitnak, Porsu, Shohobod, Mari, Penja va Saraxs degan joylar muhim o'rin egallagan edi. O'sha vaqtda Xiva shahri ikki qavat devor bilan o'rab olingan: birinchi devorning uzunligi 2 chaqirim, kengligi 200 sarjin bo'lib, uning burchaklarida to'rtta gumbaz qorovulxona qurilgan. Shaharga kirish uchun sharq tomonda Abdanbobo dorvozasi, shimolda-Bachki dorvozasi va g'arbda-Shermuhammadota dorvozasi bo'lgan. 1842-yilda Olloqulixon shaharni kengaytiradi. Shahar atrofidagi devorning aylanma uzunligi 6 chaqirimga etkaziladi. Shaharga kirish uchun yangi devorga 12 darvoza o'rnatiladi. Natijada Xiva shahrining maydoni 10 desyatinaga, aholining soni 10000 kishiga etadi. Xiva diniy va ilmiy markaz bo'lib, bunda 17 machit, 22 madrasa va xon saroyi o'rnatilgan edi.[5:119-bet]

Shuningdek, Shaharliklar Polvon ota arig'i suvidan foydalanar edilar. Lekin ariqlardan oqadigan suvlarning ifloslanishi sababli turli kasalliklar, ayniqsa rishta kasali tarqalar edi. Xivada va uning atrofidagi yerlarda qishloq xo'jaligi ishlari, ayniqsa bog'dorchilik bilan shug'ullanilar edi. Shaharda 260 do'kon, bir qancha karvon saroylar bor edi. Yana savdogarlar uchun cheti devorli katta va uzun timlar mavjud edi.[3:121-bet] Paxta, ip, ipak, gilam, kigiz, sholcha, arqon, mis, temir, yog'och, o'tik, non bozorlari bo'lar edi. Yoki kavushdo'zlar, temirchilar, zargarlar, miskarlar, duradgorlar, egarchilar, attorlar, bazzozlar, idish-tavoqlar, choy, sovun-sham, pichoq, charm va shunga o'xshashlar bilan savdo qiladigan alohida-alohida rastalar ham bo'lgan. Turli meva rastalari ham mavjud edi.

Xonlik shaharlaridan Qo'ng'iro't, Gurlan, ko'xna Urganch, Yangi Urganch, Hazorasp, Toshovuz, Mari ham katta imkoniyatga egaligi bilan ajralib turadi. Bu yerda 315 savdo do'koni, 7 machit, hammom, karvon saroy va shu kabi pishiq g'ishtdan qurilgan uylar bo'lgan. Shahar atrofida yaxshi mevazor bog'lar bor edi.[5:118-bet] Gurlan shahrida esa 300 dan ortiq har xil do'konlar ishlab turgan. Xonlikning eng eski shaharlaridan ko'xna Urganch o'sha davrda xaroba holda bo'lsa ham, lekin o'zining qadimgi yodgorliklari bilan O'rta Osiyoda va butun Sharqda mashhur edi. Ko'xna Urganchdan bir chaqirim chetda, xon arig'i bo'yida shaharcha vujudga keldi. Uning atrofi devor bilan o'rab olindi. U obodlasha bordi. Yangi Urganch 15-20 machit va 2 madrasani, 320 do'kon va bir qancha karvon saroylarni o'z ichiga olgan edi.[5:120-bet] Eng qadimgi shaharlardan Hazorasp Xivadan 57 chaqirim sharq tomonda joylashgan bo'lib, atrofi devor bilan o'ralgan. Shaharda 10 machit, Inoqning arki, pishiq g'ishtdan qurilgan madrasa, 150 do'kon mavjud edi; bu erda ham savdo va hunarmandchilik ancha taraqqiy qilgan edi.[5:121-bet] Xivadan 61 chaqirim shimoli-g'arbdagi Toshovuz Xorazm xoni- Rahimhonning asosiy dam olish joylaridan biri hisoblanardi. Bu erda, kata shaharlardagi kabi, haftada chorshanba va shanba kunlari bozor bo'lib savdogarlar ko'chmanchi aholi bilan savdo qilishga kelar edilar. Ayniqsa, turkman gilamlari, qo'y, jun va shu kabilar ko'p sotilar edi. Shaharning o'zida esa 180 do'kon bo'lgan. XIX asr o'rtalarida Mari ichki va tashqi savdoda katta rol o'ynab kelar edi. Bu shahar turkmanlar, Eron, Afg'oniston, hindlar va Buxoro bilan savdo aloqalarida muhim ahamiyatga ega edi. Savdo-sotiqda paxta va tamaki asosiy o'rin tutardi. Barcha bozorlarda hunarmandlar ishlab chiqargan olacha, qalami, bo'z, chit, doka, ko'chmanchi aholi tomonidan tayyorlangan chakmonlik, kigiz, sholcha, qop, arqon, gilam va boshqa narsalar sotilgan.

XIX asrning 30-50 yillarida Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasidagi savdo ancha qizg'in edi. Buxorodan Xivaga ko'k choy, tamaki, chinni idishlar, ip va shoyidan to'qilgan kiyimliklar, har xil to'nlar, qorako'l teri va shu kabi molar olib borib sotilardi. Xivadan Buxoro bozorlariga shoyi va ip gazlama, olma, kunjit, ot terisi, Rossiyadan keltirilgan temir va cho'yan asboblari, temir, cho'yan va shunga o'xshash mollari keltirilardi. Xiva bilan Buxoro o'rtasidagi

savdoda har yili 1000-1500 tuya karvon qatnar edi.[7:71-bet] Xivaning Qo'qon bilan savdo aloqalari sust edi. Xivadan Buxoroga borgan savdogarlar Qo'qondan kelgan mollarni, Qo'qon savdogarlari esa Xiva mollarini sotib olar edilar. Xiva bilan Qo'qonning o'zaro savdosi Sirdaryoning quyi tomonidan, ayniqsa Oqmachitda, 1814-yildan keyin esa Qo'qon xonligi harbiy baza va chegera shaharchalari sifatida qurdirgan Qo'shqo'rg'on, Chimqo'rg'on, Yangiqo'rg'on tomonlarida bo'lar edi. Xiva xonligidagi katta shaharlarda, jumladan, Xivada ham hind va yaxudiy sudxo'rlari bor edi. XIX asr o'rtalarida ayrim sudxo'rlar 60 ming so'mgacha kumush pulga ega edi.[7:81-bet] Ular xonning davlat apparatida, uning ichki va tashqi siyosatida katta rol o'ynar edilar. Hunarmandchilik sanoatining ko'p qismi, kata bog' va er maydonlari shular qo'lida to'plangan edi. Sudxo'rlar pullarini savdogar, hunarmand va dehqonlarga ijaraga berib, juda katta foyda olishar edi. Ular ichki va tashqi savdoda ham hukmronlik qilar edilar. Xiva xonlari xazinada pul tugab qolgan paytlarda shu sudxo'rlardan qarz olib turar edilar. Bunday puldorlarning bir qismi xonning harbiy boshliqlari va uning mansabdorlari bo'lib olgan edi. Xiva xonligida Qo'ng'iro't, Xiva, Urganch shaxarlari savdo-sotiq ishlarida markaziy shaxarlar xisoblanar edi. Xonlikning markazi Xiva 17-18 chaqirim aylanma uzunlikdagi devor bilan o'ralgan bo'lib, uning 12 ta darvozasi bor edi. Shaharda xon saroyi, 9 karvon saroyi, 6 hammom, 12 madrasa va 400 machit mavjud edi. [8:74-bet] To'rtta katta karvon saroy, asosan chet ellardan, ayniqsa Rossiya, Hindiston, Tibet, Qashg'ar, Afg'oniston, Eron kabi mamlakatlardan kelgan savdogarlarga xizmat ko'rsatar edi.

Urganch shaxri 1842-1845-yillarda 15 chaqirim uzunlikdagi aylanma devor bilan o'ralgan bo'lib, uning bozori Xiva bozoriga nisbatan ancha katta edi. Xonlikning butun tashqi savdosi markazlashgan shaharlardan biri Qo'ng'iro'tda amalga oshirilgan. Qo'ng'iro't qadimgi shaharlardan bo'lib, uning atrofi 27-28 chaqirim uzunlikdagi devor bilan qurshalgan. Ushbu devor asosan mudofaa vazifasini bajargan bo'lib, ayni paytda shaharni ko'rkiga ko'rk ham qo'shib turgan edi. Qo'ng'iro'tni bu darajada katta mavqega ega bo'lishi, savdo yo'lida joylashganida edi. Qo'ng'iro't ichki va tashqi savdoning asosiy markazlaridan hisoblanardi. Bu yerda pishiq g'ishtdan qilingan 13 ta ikki qavatli katta karvon saroy bo'lganligi ma'lumdir. Bu yerga xonlik tasarrufidagi boshqa shaharlardan paxta, ipak, mevalar, tuz, qurilish yog'ochlari, bo'z, kanop, jun maxsulotlari, charm-teri, buyoqlar va boshqalar keltirilar edi.[9:442-bet]

Qo'ng'iro't shahri orqali poytaxt Xivaga Buxoro, Rossiya, Xitoy, Eron va Xindistondan keltirilgan mollar ham olib kelinar edi. Jumladan, Qo'ng'iro't orqali Xivaga Buxorodan olib kelingan hindlarning baqqollik mollari, Qobul belbog'lari va sallalari keltirilgan. Bu savdo turi bilan xonlik poytaxtida yashovchi afg'onlar, qobulliklar va hindlar shug'ullanganlar.

Xonlikning tashqi va ichki savdosida boshqa shaharlar ham muhim ahamiyatga ega edi. Ushbu shaharlar savdogarlari tashqi savdoda Xitoy, Qashg'ar yeri bilan olib borilgan savdoda o'z faolliklari bilan ajralib turardilar. Ko'rilayotgan davrda Xiva xonligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi savdo ancha qizg'in edi. Xivadan Buxoro bozorlariga ipak, shoyi kiyimliklar, ayniqsa Xiva gilamlari, choy, xar xil chinni idishlar, turli xil quruq mevalar olib borilardi. Yana shuningdek, Xiva xonligidan, xususan Qo'ng'iro'tdan Buxoroga Rossiya mollari: temir, po'lat va cho'yan asboblari olib borilgan. Qo'ng'iro't savdogarlari Buxoro bozorlariga olib borgan bu mollarni ko'proq Xisor, Badaxshon, Maymana va boshqa joylardan kelgan savdogarlarga sotar edilar. Buxorodan Xivaga, paxta, doka, qorako'l teri, qand, baqqollik mollari, temir va cho'yan asboblari va shunga o'xshash narsalar keltirilar edi.[8:75-bet] Missionerlarning da'vati ham, diplomatik kelishuvlar ham, qurol kuchi bilan bo'ysundirishlar ham xalqlarni hayotiy ehtiyoj va foyda almashinuvi, ya'ni savdosotiq singari birlashtira olmaydi.

Ma'lumki, O'rta Osiyoda paxtachilik rivojlangach, gazlama va kiyim-kechak ichki va tashqi savdoning muhim tovarlari hisoblangan. Rossiyada o'zbek tovarlariga, xususan, gazlama va kiyim-kechaklariga talab katta bo'lib, faqat markaziy joylarida emas, balki Volgadan tortib, to Yeniseygacha bo'lgan yerlarda sotilgan. O'zbek xonliklari gazlamalari tashqi ko'rinishidan dag'alroq bo'lsa-da, lekin arzonligi va pishiqligi tufayli oddiy kishilarga juda qo'l kelgan. Oq bo'z, chit, olacha, zandoni kabi gazlama turlari Orenburg va Troisk orqali Rossiyaning ko'p joylariga tarqalgan. 1840-1849-yillarda Orenburgga ko'proq oq bo'z Buxorodan keltirilib, 10 yil mobaynida

399620 to'p (176503 so'mlik) sotilgan. Xiva xonligidan 381613 to'p (187279 so'mlik) oq bo'z olib kelinib, sifati nisbatan yaxshiroq bo'lgani bois narxi birmuncha baland yurgan.[10:275-bet]

O'zbek gazlamalaridan biri zandoni Rossiyada juda ko'p xarid qilingan. Chunonchi, Orenburga 1840-1849 yillar oralig'ida Buxorodan 227768 to'p (94447 so'mlik) va Xivadan 316701 to'p (131986 so'mlik) zandoni olib kelingan. Bu borada Xiva salmog'li o'rinni egallagan. XIX asr o'rtalariga kelib Xivadan Rossiyaga chiqariladigan mol xillarining ko'payib borishi tufayli mollarning umumiy summasi ham osha bordi. Masalan, 1848-1850 yillarda birgina Orenburgga yuborilgan mollarning summasi 1 million 400 ming so'mni tashkil qilgan edi.[7:130-131-bet]

XIX asrning 40-yillarida Nijegorod yarmarkasi o'zbek xonliklari bilan rus davlati o'rtasidagi savdoda muhim rol o'ynagan. 1842-yilda Xivadan bu yarmarkaga 657 ming 745 so'mlik mol yuborilganligi ma'lumdir. O'sha yili Xivadan Rossiyaga chiqarilgan mollarning 60 foizidan ortiqrog'i Nijegorod yarmarkasiga yuborilgan edi. Rossiyaga chiqarilgan 181 ming 725 so'mlik 29383 pud paxtaning hammasi shu yarmarkada sotilgan edi.[7:133-bet]

XIX asrning 40-50 yillarida O'rta Osiyo savdogarlari Nijegorod, Irbit va Korenni yarmarkalaridan tashqari, yana har yili 5 dekabrda 25 yanvargacha davom etadigan Obdorskiy yarmarkasida, Moskva va boshqa markaziy shaharlarda ham savdo qilar edilar. Rossiyadan xonliklarga keltirilgan mollar orasida Buxoroga keltirilgan rus mollari summasining miqdori Xiva va Qo'qon xonliklariga olib kelingan mollar miqdoriga nisbatan ko'proq bo'lardi. 1836-yilda Rossiyadan Xivaga 405 ming 37 so'mlik, Qo'qonga 327 ming 926 sumlik mol keltirilgan bo'lsa, Buxoroga 1 million 81 ming 360 so'mlik mol olib kelingan. Edi. Shuningdek, 1833-1838 yillarda Rossiyadan xonliklarga yuborilgan 15 million 200 ming so'mlik mollardan Buxoro amirligiga olib kelingan qismi 7 million so'mni tashkil qilgan edi.

XIX asr 50 yillarining oxiriga kelib rus mollari O'rta Osiyodan ingliz mollarining siqib chiqarishi bilan birga, Angliya hukmronlik qilayotgan Ost-Indiya yerlariga ham tarqalib, ingliz mollari bilan raqobat qila boshlagan edi. XIX asrning 50 yillarida Rossiyadan Turkiston yerlariga keltiriladigan rus mollarining turlari ham ko'paya bordi.

Rossiyadan temir va har xil temir asboblari ham keltirilardi. Jumladan Xiva xonligiga 1840-1849-yillarda 54 ming 630 so'mlik temir va 124 ming 199 so'mlik temir idish-asboblari keltirilgan.

Shu bilan birga ko'plab ip-gazlamalar ham keltirilardi. Yuqorida ko'rsatilgan 10 yil mobaynida Rossiyadan Xiva xonligiga hammasi bo'lib, 3 million 784 ming 901 so'mlik ip gazlama keltirilgan.[11:141-bet] Bu gazlamalar yaxshi sifatli, chiroyli va arzon bo'lishi tufayli mahalliy gazlamalar tobora kasod bo'lib qolgan. Rossiyadan Xivaga turli movut ham olib kelingan. Bullg'ori charm yil sayin ko'proq keltirilgan. 1840-1849-yillar davomida Rossiyadan Xiva xonligiga 237 ming 889 so'mlik bulg'ori charm yuborilgan edi.

XIX asrning ikkinchi choragida Rossiyadan Xiva xonligiga keltirilgan mollarga nisbatan chiqarilgan mollar summasi bir yarim baravar ortiq edi. Rossiya bilan xonlik o'rtasidagi savdo-sotiq xivalik savdogarlar muhim o'rin egallagan edilar. Rus savdogarlarining oz qismigina Turkistonga jumladan, Xivaga o'zlari qatnardi, XIX asrning 60-yillarida esa O'rta Osiyoga keluvchi savdogarlarning soni yanada kengayib ketgan edi. Chunki yo'lning uzoqligi va qiyin bo'lishi, yo'l qaroqchilarining savdogarlarni talashi, karvon yo'llarida Xiva bilan Qo'qon xonlari va amaldorlari tomonidan savdogarlardan g'ayriqonuniy boj olish xatti-harakatlarining kuchayib borishi bilan bir qatorda Rossiya O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishga kirishishi o'rtadagi teng o'zaro savdo-sotiqning rivojiga g'ov bo'ldi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrda Xiva xonligi Markaziy Osiyodagi muhim siyosiy va iqtisodiy markazlardan biri sifatida qo'shni davlatlar bilan faol aloqalar olib borgan. Xonlikning Buxoro, Qo'qon, Eron, Afg'oniston, Hindiston hamda Rossiya bilan munosabatlari, avvalo, savdo-sotiq, elchilik almashinuvi va o'zaro manfaatlariga asoslangan iqtisodiy hamkorlik shaklida namoyon bo'lgan. Bu jarayonda Xiva faqat mintaqaviy ichki savdo markazi emas, balki Sharq va G'arbni bog'lovchi muhim bo'g'in sifatida ham maydonga chiqqan.

Tahlillar Xiva xonligining tashqi aloqalari bir tekis va sodda kechmaganini, aksincha, murakkab geosiyosiy sharoitda shakllanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Rossiya bilan munosabatlarda savdo manfaatlari, diplomatik muloqot va strategik bosim unsurlari o'zaro qorishib ketgan. Dastlab savdo va elchilik aloqalari ko'rinishida boshlangan munosabatlar keyinchalik Rossiya imperiyasining siyosiy- harbiy manfaatlari kuchayishi bilan boshqa mazmun kasb etdi. Shu bois Xiva xonligining Rossiya bilan aloqalari bir tomondan iqtisodiy foyda manbai bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan xonlik mustaqilligiga tahdid tug'diruvchi omilga aylangan.

Shuningdek, Xiva xonligining ichki iqtisodiy salohiyati, hunarmandchilik va savdo markazlarining rivojlanganligi, karvon yo'llaridagi qulay o'rni uning tashqi aloqalarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Xiva, Qo'ng'iroq, Urganch, Hazorasp singari shaharlarning savdo-hunarmandchilik markazlari sifatida taraqqiy etgani xonlikning mintaqalararo almashinuvdagi mavqeini mustahkamlagan. Umuman, Xiva xonligining mazkur davrdagi tashqi siyosiy va savdo aloqalari uning iqtisodiy barqarorligi, diplomatik tajribasi va mintaqaviy tarixdagi o'rnini belgilab bergan muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустанлакачилиги даврида.-Т.: «Шарқ» 2000.
2. Зиёев Ҳ.З. Сибирлик ўзбеклар (XVI аср XX асрнинг бошлари) –Т. : 1958; Ўша муаллиф Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI-XIX асрлар)-Т., 1962; Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (во второй половинѣ XIX столетия до первой мировое войнѣ). –Т.: 1959; Мухаммаджонов А, Неъматов Т.Н Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.-Т.: 1967; Неъматов Т. Хива ва Россия муносабатлари тарихидан (XIX асрнинг 20-50 йиллари), Т.: 1959; Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии (первие половине XIX века) М.: 1974; Гулямов Х. Г. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством в XVIII веке-Т., 1992; С. Хошимов Туркистоннинг дипломатик алоқалари тарихидан «Фан турмуш» 1998. 2-сон, 22-23 бетлар.
3. Хаджаева Б.С.Сборник документов по истории Средней Азии XVI-XIX вв Обществѣннѣ науки в Узбекистане. 1993: №6 Стр 26-29.; Норқулов Н., Жўраев. Ў. Ўзбекистон тарихи. (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми)-Т., «Шарқ» 2001; Аллаева Н. Хива хонлигининг Эрон билан савдо алоқалари тарихидан. (XVI-XVIII асрлар). Ўзбекистон тарихи. 2007: 1-сон 67-73 -121-бетлар.
- 4.Зелькина Е. Очерки по аграрному вопросу в Средней Азии. М.: 1930. Г 20-с
5. Норқулов Н., Жўраев Ў. Ўзбекистон тарихи (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми). Т., «Шарқ» 2001.й 118-119-120-121-бетлар.
- 6.Ўзбекистон тарихи. Т., «Университет» 1997.
- 7.Мухаммаджонов А. Р., Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Т., «Фан» 1957 й 71-81-130-131-133-бетлар.
- 8.Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землех Средней части Азии. М., «Наука» 1968 г 74-75-с
- 9.Кун А. Некоторые сведения о Ферганской долине || Военный сборник. 1876 г 442-с.
- 10.Ҳамид Зиёев. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари) Т.,«Шарқ» 2006 йил 275-бет.
- 11.Зиёев Ҳ. Ўрта Осиё ва Сибирь XVI-XIX асрлар. Т., 1968 й 141-бет.
12. Abduganievich, A. B. (2022). REVIEW OF KHIVA KHANATE'S FOREIGN DIPLOMATIC RELATIONS WITH NEIGHBORING STATES IN ABULGAZI'S WORKS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(7), 83-86.
13. Abduganievich, B. A., & Dilshod, M. (2020). SPECIAL INFORMATION ABOUT FOREIGN TRADE AND DIPLOMATIC RELATIONS IN THE 18TH CENTURY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(1).

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorda ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].